

**AGROTURIZMNI HUDUDIY TASHKIL ETISHNING TAMOYILLARI,
RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA ULARDAN AMALIYOTDA
FOYDALANISH**

*Yusubova Sharqiyaxon San'at qizi - doktorant
Toshkent Arxitektura Qurilish Universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada agroturizm sohasini tashkil etishning o'ziga xos tamoyillari va ularni rivojlantirish modellari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Agroturizm, tamoyil, model, qishloq xo'jaligi, agroturistik ta'lif, agropark

Agroturizmni shakllantirish va rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish muayyan tamoyillarga, ya'ni maqsadga yo'naltiruvchi qoidalarga amal qilishni talab qiladi. Lekin mavjud adabiyotlarda agroturizm tamoyillari to'g'risida to'liq ma'lumot uchramaydi. Xorijiy adabiyotlarda olimlar va mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikrlar va qarashlarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida agroturizmning asosiy tamoyillarini quyidagicha izohlash mumkin deb hisoblaymiz:

1. Davlatning agroturizmini tartibga solishning ustuvorlig tamoyili. Mazkur tamoyilga asosan agroturizmni rivojlantirishda davlatning turizm sohasida qabul qilingan qonun va qarorlari muhim ahamiyatga ega. Ular agroturizmni qishloq joylarida rivojlantirishga xizmat qiladigan, istqibolga xizmat qiladigan maqsadli dasturlar, rejalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq qilish tadbirlarini hamda kadrlar tayyorlashning davlat tomonidan amalga oshirilishini talab etadi. Rivojlangan mamlakatlarda agroturizm subyektlari turistlarga soliq, kredit imtiyozlari berish, information ma'lumotlarni bepul olish qonun asosida belgilangan. Masalan, Italiyaning aksariyat provinsialarida agroekoturistik xizmatlarida mijozlarning Yoshi hisobga olinadigan chegirma normalari belgilangan : 2 yoshgacha bo'lган bolalar uchun xizmatlar bepul, 3 yoshdan 12 yoshgacha bo'lган bolalarga esa 20 foizli chegirmalar berish belgilab qo'yilgan.

2. Vatanparvarlik tamoyili. Mazkur tamoyil xorijlik sayyoohlarni yurtimiz madaniyati, tabiatni, qishloq xo'jaligini yuritish usullari va an'analarini bilan tanishtirishni, mamlakatimiz yoshlarini esa Ona vatanga mehr-muhabbat va uning milliy qadriyatiga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashni ko'zda tutadi.

3. Tabiiy resurslardan maqsadli va oqilona foydalanish tamoyili. Mazkur tamoyil turistik faoliyat jarayonida agroturistik resurslar salohiyati va imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish va ularni asrash, yaxshilash, muhofaza qilishni zaruriy shartga aylantiradi.

4. Agroturizmni tashkil etishning kompleksli tamoyili. Unga muvofiq qishloq joylarining tabiiy, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, ekologik, tarixiy resusrlardan kompleks foydalanish maqsadida agroturizmni tarixiy, diniy, etnik turizm turlari bilan birga qo'shib tashkil etish zaruratga aylandi. Masalan, Italiya hududida 5 ta milliy bog' (umumiyligi maydoni 272 ming ga.), 150 dan ortiq rezervatlar va buyurtmalar (umumiyligi 103.5 ming ga.) tashkil etilgan bo'lib, ularda yilning hamma mavsumida agroturizm ekologik turizm bilan qo'shib olib boriladi.

5. Ma'naviy birlik va farovonlik manbai tamoyili. Milliy an'anaviy qadriyatlarning qishloq joylarida saqlanib qolganligi agroturizmda etnomadaniy intergratsiyani vujudga keltirmoqda. Bu esa milliy-manaviy qadriyatga hurmatning oshishiga, ularni asrab-avaylashga yordam beradi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi agroturizm orqali qishloq joylarida ishsizlik, aholi migratsiyasi hamda turmush darajasining pasayishining oldini olish mumkinligi isbotlanmoqda. Agroturizm agrar hududlarda ortiqcha mehnat resusrlarini muqobil xizmat ko'rsatish sohalariga o'tkazishga hamda ko'plab yangi kichik korxonalarini ishga tushirishga imkon beradi. Masalan Germaniyaning birgina vino ishlab chiqaruvchi agrofirmalari qoshida agroturistlarga servis xizmati ko'rsatuvchi va souvenir ishlab chiqaruvchi ko'plab kichik korxonalar tashkil etilgan. Birnecha ferner xo'jaliklari esa restoran va kafelarni sut, sabzavot va poliz mahsulotlari bilan ta'minlashga ixtisoslashgan.


6. Qishloq joylarini barqaror rivojlantirishga ko'mak ko'rsatish tamoyili. Mazkur tamoyilga ko'ra agroturizmning tashkil etilishi va rivojlantirilishi qishloq joylarida yangi tarmoqlar paydo bo'lishi, yangi ish o'rnlari tashkil etilishi, aholining ish bilan ta'minlanishi va daromadning oshishiga, shu asosda qishloq joylarining barqaror rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

7. Qishloq va shahar madaniyatlari o'rtasida vositachilik tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra agroturizm orqali shahar bilan qishloq o'rtasidagi aloqalar rivojlanadi, qishloqlarda shaharga xos qulayliklar yaratiladi. Mazkur tamoyil respublikamizda amalga oshirilayotgan qishloqlarni rivojlantirish "Obod qishloq", "Obod mahalla" dasturida belgilangan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

8. Agroturistik ta'limning zarurligi tamoyili. Bugungi kunda turizm industriyasini malakali kardlarsiz rivojlantirib bo'lmaydi. Mazkur tamoyil kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, qayta tayyorlash tizimini shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha Rossiyaning Yaroslav viloyatida tashkil etilgan o'quv markazlarining samarali faoliyatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bu markazlarda agroturizm bilan shug'ullanuvchilar uchun qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etilgan, ularda agroturizmni rivojlantirish amaliyoti asoslari o'rgatiladi.

Konsepsiylar, xususan, jamiyatning tabiatga bo'lgan munosabatini, tabiatdan oqilona foydalanish, uni saqlash va muhofaza qilish, borasida olib borilayotgan tadbirlarni ilmiy asoslashga xizmat qiladi. "Konsepsiya (lotincha conception- qabul

qilmoq, qarash) biror sohaga oid qarashlar, tamoillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqati nazar”ni bildiradi. Shu nuqati nazardan agroturizm konsepsiysi iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy vazifalarni bajarishga yo’naltiradi. Agroturizm turli mintaqa va davlatlarning tabiiy-ijtimoiy ijtimoiy taraqqiyoti va mafkuraviy holatlaridan kelib chiqqan holda turli yo’nalishlarda rivojlanmoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasida agroturistik konsepsiya asosida kichik va o’rta shaharlarda agro va ekoturizmning rivojlanishhida munitsipal tuzilmalarga yordam ko’rsatish loyihasi amalga oshirildi. Bu loyiha 2003-2004 yillarda “YevroOsiyo” jamg’armasining moliyaviy ko’magida “Munitsipal iqtisodiy rivojlanish” assotsiatsiyasi, 20 dan ortiq munitsipal tuzilmalar va 5 ta mintaqa vakillari bilan birgalikda ishlab chiqilgan. Rossiya Ferderatsiyasida eko-agroturizmning rivojlanish konsepsiyasiga asoslandi. Mazkur konsepsiya Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasi hamda Federatsiya Kengashi tomonidan tasdiqlandi.




E.Karchevskaya agroturizm xalqaro amaliyotda keng qo’llanilayotganiga qaramay, uning umumiy konsepsiysi ishlab chiqilmaganligini, terminologik birligi qabul qilinmaganligin ta’kidlaydi. Ko’pgina mamlakatlarda milliy turistik sohaning rivojlanishida agroturizm va ekoturizmga yetakchi yo’nalishlar sifatida ahamiyat beriladi, bu holat ularning milliy rivojlanish konsepsiyalarida ham o’z aksini topgan. Jumladan, Rossiya, Belorusiya, Ukrainada agroturistik konsepsiyalar asosida qishloq

joylarida sayyoqlikni rivojlantirishning qator modellaridan foydalanilmoqda. Mazkur modellarning o'ziga xos xususiyatlarini turkumlash natijalari ko'rsatilgan.

1. Kichik oilaviy mehmonxona biznesi modeli. Bu model ma'lum hududning ijtimoiy-madaniy muhitning o'zgartirmagan holda, qishloq joylarining mavjud turistik resurslariga tayanib agroturistik faoliyatni tashkil etish va rivojlantirish yo'naliishi hisoblanadi, ular asosan milliy konsepsiyalarga asosan rivojlantirilmoxda. Model aholining turmush farovonligini oshirish maqsadida agrar sektorda band bo'lgan aholini bir qismini xizmat ko'rsatish sektoriga o'tkazishni davlat siyosati darajasiga ko'tarishni ko'zda tutadi. Unda turistlarga qulay shart-sharoitlar yaratish uchun qishloqlarda mavjud turar-joy va xo'jalik obyektlari (ferma, baliqchilik xo'jaliklari, dehqon uylari) imkoniyatlaridan foydalanish masalasi ham muhim o'rinni egallaydi.

Respublikamizda mazkur modeldan foydalanish orqali agroturizmda yuqori natijaga erishish mumkin.

2. Tarixiy agrar obyektlar modeli. Bu modelning yo'naliishini "tarixiy qishloq", "milliy qishloq", "hunarmandlar poselkasi" kabi turar-joylar yoki turli xil tarixiy-milliy obyektlar (Yevropa mamlakatlarda dvoryan va savdogar usadbalari, cherkovlar va h.k) belgilaydi. Bunda mazkur obyektlar agroturizm ehtiyojiga mos yo'naliishda qayta quriladi. Shu maqsadda kompleks loyihalar ishlab chiqiladi, ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshiriladi, zamonaviy menejment tashkil etiladi, investitsiyalar ajratiladi, tegishli huquqiy-me'yoriy asoslар yaratiladi.



Dugungi kunda mazkur model namunalari ko'p hollarda muzey majmualari asosida tashkil etilgan. Bunga Tula viloyatidagi Yasnaya polyana va Smolenskdagi Xmelita muzey majmularini misol qilib ko'rsatish mumkin. Respublikamizda ham

ko'plab tarixiy agrar obyektlar: Nurota etkalari, Pashxurt, Popda yuzlab koriz tizimlari, Mirzacho'l, Malik, Qarshi cho'llarida saqlanib qolgan sardobalar, Nurota etaklaridagi minglab quduq, hovuz, bandlar, o'nlab qulfakli hovuz, dashqoqlar, yer osti suv omborlari mavjud. Shuningdek Samarqand atrofida Amir Temur tomonidan bunyod ettirilgan tarixiy bog'larni (Bog'i Baland, Bog'i Bexisht, Bog'i Davlatobod, Bog'i Dilkusho, Bog'i Jahannamo, Bo'g'i Maydon, Bog'i Nav, Bog'i Chinor, Bog'i Shamol) qayta tiklab istiqbolda shu maqsadda foydalanish mumkin.

3. Ixtisoslashtirilgan xususiy agroturistik obyektlar modeli. Bu model faqatgina agroturistlarni qabul qilish va ularni to'laqonli dam olishlarini tashkil etishga qaratilgan. Bunda "turistik qishloqlar" va "sayyoohlар uyi" shaklidagi ixtisoslashtirilganxususiy turar-joylar, yuqori darajada xizmat ko'rsatiladigan mehmonxonalar hamda ularning qoshida madaniy etnografik markazlarni tashkil etish ko'zda tutiladi. Mazkur model qishloq hududlari yuqori turistik potensialga ega bo'lgan Fransiya, Italiya, Shvetsariya, Kanada, AQSh kabi mamlakatlar uchun xos. Bu modelning samarali ishlashi mahalliy va tashqi resurslardan foydalanish loyihamalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, bu jarayonda hukumat yoki boshqa manbalarning moliyaviy qo'llab-quvvatlashiga bog'liq bo'ladi yoki boshqa manbalarning moliyaviy qo'llab-quvvatlashiga bog'liq bo'ladi.

4. Davlat yoki xususiy qishloq xo'jalik parklarini (agroparklarni) yaratish modeli. Mazkur modelda tegishli moddiy-texnika bazasi va infrastrukturaga ega bo'lgan ko'p funksiyali turistik (ko'rgazmali-ekspozitsion, madaniy-targ'ibot, ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlab chiqarish) majmualarini barpo etiladi. Bunda davlat yoki xususiy investitsiyalar asosida kompleks loyihamalar ishlab chiqiladi, ilmiy-texnik va ilmiy-tadqiqot bazasi yaratiladi. Bu modelda turizmdan tushadigan daromaddan tashqari, mamlakat qishloq xo'jalik yutuqlarini va milliy (an'anaviy) qishloq xo'jalik yoki innovatsion agrotexnologik usullarni namoyish etish targ'ib etish nazarda tutiladi.

Barcha modellarni qo'llashda hududning turistik resurslaridan tashqari, qishloqdagi turistlarni joylashtirishga moslashtirilgan (ixtisoslashtirilgan) obyektlarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Yevropada shu maqsadda kichik oilaviy mehmonxona biznesi modeli ko'p qo'llaniladi. Bunday model so'nggi yillarda Sharqiy va Markaziy Yevropa, Boltiqbo'y, Bolqon va MDH malakatlarida keng tadbiq etilmoqda. Kichik oilaviy mehmonxona biznesi modeli O'zbekistonda ham (Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz kabi shaharlar atrofida) qisman qo'llanilmoqda.

Kichik oilaviy mehmonxona biznesi modelini qo'llashda quyidagi shartlarga amal qilish talab etiladi: agroturizmni rivojlantirishda davlatning qo'llab-quvvatlashi; kichik shahar, qishloq va ularning atrofida agroturizm talablariga javob beradigan kichik mehmonxonalarining mavjudligi; agroturistik xo'jaliklarni tashkil etishning tegishli huquqiy-me'yoriy asoslarining yaratilganligi; agroturizm bozorini

shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan informatsion texnologiyalarning joriy qilinganligi; agroturizm subyektlari birlashmalari boshqaruvining tashkil etilganligi; milliy va mintaqaviy agroturistik xizmatlarni tarqatish imkoniyatining mavjudligi; targ'ibot va namoyish tizimining yaratilganligi.

Yuqorida ta'riflangan tamoyil va modellar jamiyat hayotida agroturizmning muhim ahamiyat kasb etishini amaliyotda ulardan O'zbekistonda ham foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, agroturizmni shakllantirish va rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish muayyan tamoyillarga, ya'ni maqsadga yo'naltiruvchi qoidalarga amal qilishni talab qiladi. Lekin mavjud adabiyotlarda agroturizm tamoyillari to'g'risida to'liq ma'lumot uchramaydi. Xorijiy adabiyotlarda olimlar va mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikrlar va qarashlarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida agroturizmning asosiy tamoyillarini yuqorida keltirib o'tildi.

E.Karchevskaya agroturizm xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotganiga qaramay, uning umumiyligi konsepsiysi ishlab chiqilmaganligini, terminologik birligi qabul qilinmaganligini ta'kidlaydi. Ko'pgina mamlakatlarda milliy turistik sohaning rivojlanishida agroturizm va ekoturizmga yetakchi yo'nalishlar sifatida ahamiyat beriladi, bu holat ularning milliy rivojlanish konsepsiyalarda ham o'z aksini topgan. Jumladan, Rossiya, Belorusiya, Ukrainada agroturistik konsepsiyalar asosida qishloq joylarida sayyoqlikni rivojlantirishning qator modellaridan foydalanilmoqda. Mazkur modellarning o'ziga xos xususiyatlarini turkumlash natijalari ko'rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Yerdavletov S.R. Казахстан туристский. – Almata:Qaynar, 2000
- Tuxliyev N., Abdullayeva T. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегии развития. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006
- Usmonov M.R. O'zbekistonda turizm rivojlanishining mintaqaviy xususiyatlari: Toshkent,2003
- Yakubjanova Sh.T. Agroturizmning – ekologik va iqtisodiy imkoniyatlar manbai.- Ekologiya xabarnomasi, 2017
- Nigmatov A., Yakubjanova Sh.T. Agroturizm: milliy turizmning yangi yo'nalishi// O'zbekiston qishloq xo'jaligi.-Toshkent, 2007
- Toshmurodov T. Xalqaro turizm. Toshkent: Turon-Iqbol, 2007